



YOZMA NUTQDA UCHRAYDIGAN MANTIQUIY XATOLAR AHAMIYATI VA ULAR USTIDA ISHLASH

Usmonova Iroda Sobir qizi,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti

+998906681698

irodausmonova22@gmail.com

Annotatsiya. Nutq shaxslar o'rtasidagi kommunikatsiya, aloqa-aralashuv vositasi bo'lmish tilning voqelangan ko'rinishi bo'lib, nutqning mantiqiyliги esa **nutqning tinglovchi tomonidan to'g'ri hamda to'liq anglanilishi uchun zaruriy bo'lgan**, kishilar orasida mustahkam aloqani ta'minlaydigan og'zaki va yozma nutqning muhim xususiyatlaridan biridir. Nutqning mantiqiylik jihati, yozma nutqda uchraydigan mantiqiy xatolar va ularni bartaraf etish usullari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: *nutq, nutqning aniqligi, nutqning to'g'riligi, nutqning mantiqiyliги, sintagmatik, lisoniy omillar, g'ayrilisoniy omillar, leksik-semantik me'yor, sintaktik me'yor, metod.*

Abstract. Speech is a real manifestation of language, a means of communication and interaction between individuals, and the logicity of speech is one of the important features of oral and written speech, which is necessary for the correct and complete understanding of speech by the listener and ensures strong communication between people. The article discusses the logical aspect of speech, logical errors in written speech and methods for eliminating them.

Key words: *speech, clarity of speech, correctness of speech, logicity of speech, syntagmatic, linguistic factors, non-linguistic factors, lexical-semantic norm, syntactic norm, method.*

Nutq o'z yuzaga chiqaruvchisi bo'lmish so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan shakllantirilgan matnning og'zaki va yozma ko'rinishdagi voqelangan,



reallashgan ko‘rinishi bo‘lib, u faqatgina tilga bog‘liq hodisa hisoblanmasdan ham psixologik, ham estetik hodisadir. Shuning uchun har qanday unga nutq sifatida baho berilganda tinglovchi va o‘qirmanga u orqali yetkazilmoqchi bo‘lgan axborotning to‘liq hamda to‘g‘ri yetib borishi, shu bilan birga ma‘lum ta’sir ko‘rsatishi nazarda tutiladi. Shunga ko‘ra yuqoridagi vazifalarning amalga oshirilishida nutq oldiga ayrim talablar qo‘yiladiki, bu talablar tilning grammatik qurilishi jihatidan nutqning to‘g‘ri bo‘lishini, so‘zlar ko‘zda tutilgan ma‘noni aniq aks ettirishini, chiroyli, yorqin va ta’sirchan bo‘lishini taqozo qiladi hamda ular nutqning asosiy xususiyatlari sifatida qaraladi. Bularga nutqning to‘g‘riligi, nutqning aniqligi, nutqning mantiqiyliigi, nutqning sofligi, nutqning boyligi, nutqning jo‘yaliligi, nuqtning ifodaliligi kabilar kiradi.

Yuqoridagi xususiyatlar ichida nutqning mantiqiyliigi **nutqning tinglovchi tomonidan to‘g‘ri va to‘liq anglanilishi uchun zaruriy bo‘lgan sifatlardan biri ekanligi**, yozma nutqning ham shakliy, ham ma‘noviy tomonlariga birdek ta’sir ko‘rsatishi va nutq uchun talab sifatida qo‘yilgan bir qancha xususiyatlarni o‘zida jamlaganligi bilan ahamiyatlidir. **Mantiqiylikdan holi bo‘lgan nutq kishilar o‘rtasidagi tayinli aloqani ta’minlay olmaydi.**

Mantiqiy nutq deb yaxlit bir tizim asosida tuzilgan, fikrlar rivoji izchil bo‘lgan, har bir soz, ibora maqsadga muvofiq ravishda ishlatiladigan nutqqa aytiladi. Nutqning mantiqiyliigi uning asosiy sifatlari bo‘lgan to‘g‘rilik va aniqlik bilan chambarchas bog‘langandir. Chunki grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifodalash uchun muvaffaqiyatsiz tanlangan lug‘aviy birlik ham mantiqning buzilishiga olib kelishi tabiiydir. Mantiqiy izchillikning buzilishi tinglovchi va o‘quvchiga ifodalanayotgan fikming to‘liq yetib bormasligiga, ba’zan umuman anglashilmasligiga olib keladi. Nutqni tuzishdagi e’tiborsizlik natijasida ba’zan mantiqsizlik yuz beradi. Quyidagi misolga e’tibor qiling *«Ferma jonkuyarlari olti oylik davlatga sut sotish planlarini muddatdan oldin bajaradilar»* (Gazetadan). Gapda so‘zlarning tartibi to‘g‘ri bo‘lmaganligi, *«olti oylik»*



birikmasining «*sotish*» soʻzidan keyin kelmaganligi tufayli mantiqqa putur yetyapti, hatto xato fikr ifodalanyapti [1.56]. Shu oʻrinda «*sotish*» soʻzining oʻrniga “*yetkazib berish*” qurilmasi qoʻllanganda yanada oʻrinli boʻlardi.

Nutqda uchraydigan mantiqiy xatolar, eng avvalo, nutq soʻzlovchi va yozuvchining tafakkur qobiliyati bilan bogʻliq hisoblanadi. Shuning sababli ham yuqorida taʼkidlaganimizdek, mantiqiylik faqatgina lisoniy hodisagina emas, balki tafakkur bilan bevosita aloqador boʻlgan hodisadir.

Soʻzlarning oʻzi ifodalayotgan narsa-hodisalarga mos tarzda fikrning aniq va toʻgʻri ifodalanishi narsa (predmet) mantiqiyligi boʻlsa, soʻz birikmalari, gaplar, hatto butun-butun matnlarning bir-biriga mosligi, fikrni izchil davom ettirishga boʻysundirilishi tushuncha mantiqiyligidir [2]. Nutq mantiqiyligidagi bu jihatlar bevosita yozma ish turlaridan, ayniqsa, bayon, insho va esse uchun taalluqli boʻlib, bu turdagi yozma ishlar ijodiy yondashuv asosida bir-biriga bogʻlanishli, izchil matnlar yaratish orqali yozma nutq koʻrinishini yaratishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Bu jarayonda esa **fikrning tarkibi va qurilishining toʻgʻri ifodalanishi nutq mantiqiyligining asosini tashkil etadi.**

Soʻzlovchi, eng avvalo, bayon etmoqchi boʻlgan fikrini, bildirmoqchi boʻlgan xabarini va u bilan bogʻliq tafsilotlarni, ayni paytda mantiq qonuniyatlarini yetarli darajada tasavvur etmas ekan, u mantiqli nutq tuza olmaydi.

Mantiqiy nutq tuzish uchun soʻzlovchi fikr predmetini atroflicha bilishi, mantiqiy tafakkur qoidalaridan boxabar boʻlish kabi gʻarilisoniy talablar bilan bir qatorda til birliklarining leksik-semantik mohiyati, ularning sintagmatik xususiyati

kabi lisoniy bilimlarni ham nazardan qochirmasligi kerak. [2.21]

Yuqoridagi fikrlardan anglashiladiki, nutqda mantiqiy xatolarning yuzaga kelishi turli lisoniy va gʻayrilisoniy omillarga bogʻliq ekan. Gʻayrilisoniy



omillarning ham borligiga sabab mantiq bilan bog‘liq bo‘lgan holatlar semantik sathda amalga oshib, fikrlash bilan bevosita aloqadordir. Quyida mantiqiy xatolarga yo‘l qo‘ymaslik uchun nutqqa qo‘yiladigan shartlarni ko‘rish mumkin. Bularning birinchisi ektrolingvistik shart bo‘lib, to‘g‘ri mulohaza qilish normalarini, ikkinchi va uchinchi esa mazmuniy bog‘liqlikni yuzaga chiqaruvchi til vositalarni bilishni talab qiluvchi lisoniy omillarni nazarda tutadi:

- tushunchalar mantiqiyligiga rioya qilish;
- uslubiy me‘yorga amal qilish;
- leksik-semantik va sintaktik me‘yorga rioya qilish [3].

O‘quvchilar yozma ishlar bilan ishlash jarayonida yuqorida ifoda etilgan mantiqiylik shartlarini buzgan holda quyidagicha xatoliklarga yo‘l qo‘yishlari mumkin:

– *Yugurib charchamaydigan **chayir** mashinasi dam tepalikka, aylanma yo‘llar osha dam pastlikka, kishining nigohi tushsa yuragi shig‘illab ketadigan jarliklar yoqasidan o‘tib, yana **ko‘tarilib qolardi**.* Ushbu gapda yuqoridagi tushunchalar mantiqiyligiga rioya qilmaslik natijasida *chayir* so‘zi mashinaga nisbatan noo‘rin qo‘llanmoqda. Aslida bu sifat insonga xos xususiyat bo‘lib, mashinaga nisbatan uning o‘rniga *mustahkam*” sifati qo‘llanilsa o‘rinli bo‘lar edi.

– *Uning **yoqimli** qiliqlari, ovozi **eshitilib** ketganday bo‘ladi.* Bu misolda ham nutq mantiqiyligining uchinchi shartiga amal qilinmaganligi natijasida matn mazmuniga putur yetganligini ko‘rish mumkin. *Yoqimli* sifati *qiliq* oti bilan sintagmatik aloqaga kirishib, bog‘lanish hosil qilmaydi. Chunki *qiliq* so‘zida salbiy bo‘yoqdorlik ma‘nosi bo‘lib, *yoqimli* kabi ijobiy mazmun tashiydigan sifatlar bilan bog‘lanishi mantiqsizlikdir.

– *Ko‘zim o‘ngidan **hadsiz** odamlar o‘tdi.* Ushbu gapda nutq mantiqiyligi shartlaridan bo‘lgan uslubiy me‘yorga amal qilish holti buzilganini ko‘rish mumkin. Hadsiz sifati badiiy uslub uchun xoslangan bo‘lib, ayni o‘rinda odamlar so‘zi bilan bog‘lanmay, nutqiy g‘alizlikni yuzaga keltirgan.



–*Qo‘llari, oyoqlari o‘ziga bo‘ysunmay, o‘z-o‘zidan harakatlanar, uni qayoqqadir olg‘a eltardi* [4.38]. Ayni misolda ham tushunchalar mantiqiyliги buzilishini kuzatish mumkin. Gapda *qayoqqadir* gumon olmoshi “*o‘rinning noaniqligi*” ma’nosini ifodalamoqda. *Olg‘a* ravishi esa “*oldinga*” ma’nosini bildiradi. Bir vaqtning o‘zida ham “*o‘rinning noaniqligi*” va “*o‘rinning oldinga ekanligi*” ma’nosini ifodalash nutq mazmunini aniq anglashga ham xalaqit beradi.

Bayon, insho, esse kabi yozma ishlarda nutq mantiqiyligining buzilishi asosan matn sintaksisi sathida, ya’ni gaplarning o‘zaro mazmuniy-sintaktik bog‘lanishidagi kamchiliklar natijasida ham yuzaga keladi. Ma’lumki, matn tarkibidagi gaplar bir-biri bilan bog‘langan bo‘ladi, shunga ko‘ra bog‘li nutq tushunchasi mavjud. Matnda bog‘lilikning quyidagi uch jihatini farqlash maqsadga muvofiq:

1. Gaplarni bog‘lovchi mazmuniy bog‘lilik. Bunday bog‘lilik abzas va mustaqil leksik-grammatik vositalar (leksik takrorlar, ko‘rsatish, 3-shaxsdagi kishilik olmoshlari kabi)ning qo‘llanishi orqali namoyon bo‘ladi.

2. Mantiqiy bog‘lilik. Bunday bog‘lilik gaplar, abzaslar o‘rtasidagi mantiqiy munosabatlarning funksional-sintaktik vositalar (*demak, shunday ekan, shunday qilib, bundan tashqari, xullas* kabi kirish so‘zlar, *yuqorida, quyida, endi, bundan keyin* kabi so‘z va so‘z shakllari, *va, hamda, ammo, lekin, biroq* kabi bog‘lovchilar va sh. k.) orqali ifodalanishida namoyon bo‘ladi.

3. Kompozitsion bog‘lilik. Bunday bog‘lilik *qayd etmoq lozimki, aniqki, ta’kidlamog‘ joizki, yuqorida aytib o‘tilgani* kabi tarzidagi sintaktik qurilmalar yordamida ifodalanadi. Yaxlit matnning mantiqiyligini ta’minlashda matnning kompozitsion tuzilishini to‘g‘ri tashkil etish ham muhimdir. Bayon qilinayotgan fikr, mazmun tarkibida, tabiiyki, muayyan ketma-ketlik, aloqadorlik, bog‘liqlik, umuman, tizim mavjud. Mazmundagi ana shu tizim nutqiy ifodada ham o‘z aksini topmog‘i lozim [4.42]. Nutq egasining ijodiy faoliyati mahsuli bo‘lgan yozma ishlarda bunday “bog‘lilik” bog‘lanishli, “biri tog‘dan, biri bog‘dan”



bo‘lgan fikrlar ketma-ketligidan iborat bo‘lgan yaxlit kompozitsiyaga ega va mantiqiy tugal matnlat yaratishda muhim ahamiyatga egadir.

Masalan, inshoning kompozitsion tuzilishi uch qismdan iborat bo‘ladi, ya’ni kirish, asosiy qism va xulosa. Kirishda mavzu, uning ahamiyati, o‘rganilishi kabi masalalar bayon qilinadi, asosiy qismda aytilmoqchi bo‘lgan tegishli mazmun yoritiladi, xulosada esa bayon qilingan fikrlarga yakun yasaladi, “qissadan hissa” qilinadi. Shu tariqa fikr mantiqiy ifodalangan yaxlit matn yuzaga keladi.

Yozma nutqda mantiqiy xatolar haqida gapirganda matnning qaysi uslubda ekanligi ham alohida ahamiyatga. Chunki ilmiy uslub aniqlikka asoslanib, bu uslubda matn qat’iy izchillikda, chuqur mantiqiylik asosida bayon qilinadi. Badiiy uslubdagi nutqda mantiqiylik asosiy mezon bo‘lmay, mantiqiylikning buzilishi o‘ziga xos tasvir usuli, obrazli ifoda, qisqasi, badiiy vosita vazifasini bajarishi mumkin. Zulfiya Qurolboy qizining “Yozsiz yil”, Ahmad Muhammad Tursunning “Sohilsiz dengiz”, Tog‘ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” kabi asarlarning nomlanishida ham mantiqiylikning buzilishi orqali badiiy maqsadning yuzaga chiqishiga guvoh bo‘lamiz. Bunda asar mantig‘iga putur yetmaydi.

Yozma ishlarda uchraydigan mantiqiy xatolarni bartaraf etish mazmun-mantiqli nutqni yaratishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, quyidagi metodlar asosida maktab ta’limida o‘quvchilar yozma nutqidagi xatoliklarni tuzatish, navbatdagi xatolarni oldini olishga erishish mumkin:

1. **“Shaxsiy izohli lug‘at” metodi.** Bu metodni asosan bayon, insho kabi yozma ish turlari tahlilida qo‘llab natijaga erishish mumkin. Metod o‘quvchilarning so‘zlarni qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lgan individual mantiqiy-uslubiy xatolarini tahlil qilish va bartaraf etishga yordam beradi. Metod texnologiyasi shunday bo‘ladi: o‘quvchilarga alohida daftar tuttiriladi. Yozma ish tahlili jarayonida yozilgan ish bilan o‘quvchilar 2 daqiqada tanishib chiqib, xato va tuzatishlarni ko‘zdan kechirishadi. Jarayon xatolarni ko‘z xotirasida saqlashga yordam beradi. Keyin o‘quvchi yozma ishda ishtirok etgan, lekin ma’nosini



tushunmasdan noto'g'ri ma'noda qo'llagan yoki birinchi marta eshitayotgan tushunchalarning ma'nosi o'qituvchi va "O'zbek tilining izohli lug'ati" yordamida izohlanib, lug'at daftariga yoziladi. Shu orqali har bir o'quvchi qo'lida u uchun ma'nosi notanish bo'lgan so'zlar lug'ati paydo bo'ladi. Metod orqali o'quvchining lug'at boyligi har bir soat darsdan so'ng boyib boradi, bu uning og'zaki va yozma nutqiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tushunchalar mantiqiylikiga oid bo'lgan xatoliklar soni nisbatan kamayadi.

So'z	Ma'nosi
<i>Iztirob</i>	<i>hayajon, g'alayon, betoqatlik; ruhan ezilish; ruhiy iztirob</i>
<i>Izchil</i>	<i>1. Bir me'yorda, bir taxlitda, bir yo'nalishda; muntazam, tadrijiy davom etadigan. 2. O'zaro uzviy va mantiqiy bog'langan[5]</i>

2. "Xatosini tuzat" metodi. O'quvchilarga mantiqiy xatoliklar qo'llangan kichik matn beriladi. Ular mantiqiy xatolikni yuzaga keltirgan so'z yoki qo'shimchalarni topishadi. Yozma ishdagi xatolarni tahlil qilish bilan o'quvchilardagi diqqat, kuzatuvchanlik hamda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga erishish mumkin. Ushbu metod uslubiy xatolarni ham tahlil qilishga yordam berishi bilan ahamiyatlidir.

1. Sattorov yolvorgan ohangda ko'zlarimga umidvor qaradi. 2. Ikkalamiz ham tubsiz ko'ngilsizlik oldidan picha tinchlanishim iz kerak edi. 3. Sattorov zarda bilan planshetni irg'itib yubordi-da, mening so'zlashimga erk bermay, sakrab o'midan turdi. 4. Men Ahmadni chaqirish oldidan stol ustiga uning Valitov bilan tushgan suratini ham, Zaremaning fotosuratlarini ham sohib qo'ygan edim. 5. Mana, u oyoq uchida sekin yonimga yo'rg'alab keldi-da, meni odatdagiday so'roqlarga ko'mib yubordi. (M. Nasibullin) 6. U jamiyat taraqqiyotini rivojlantirish uchun insonlarning ma'naviyatini yuksaltiruvchi asarlar yaratdi. (A. Olimov)[4.38]



3. “To‘g‘ri davom ettir” metodi. Ushbu metod aynan bayon va inshoda uchraydigan mantiqiy – so‘zlarning sintagmatik bog‘lanishiga doir bo‘lgan xatolar ustida samarali tahlil o‘tkazish imkonini beradi. Jarayonda o‘quvchilar so‘zlarni mantiqiy va grammatik bog‘lashda yo‘l qo‘ygan xatolarini bartaraf etishni mashq qilishadi:

bezaknamo	qiz
rangpar	qizg‘aldoq
alvon	ayol
bahstalab	tushdi
go‘zal	kitob
ichkariga	mavzu
yog‘du	yopirildi

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, nutqning mantiqiyligi deganda, yaxlit bir sistema asosida tuzilgan, fikrlar rivoji izchil bo‘lgan, har bir so‘z, ibora aniq maqsadga mos holda ishlatiladigan nutq tushuniladi. Mantiqiylikdan holi bo‘lgan nutq yarashiqsiz, tushunarsiz, iste‘molga yaroqsiz holga kelib qoladi. Yozma nutqdagi mantiqiy xatolarni bartaraf etish esa ishning qimmatini, yaroqliligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T.Qudratov. Nutq madaniyati asoslari. T.: 1993.
2. S.X.Islikov, N.B.Nuraliyeva “O‘qituvchi nutq madaniyati” fanidan tayyorlangan o‘quv qo‘llanma – Guliston / “Ziyo nashr matbaa” XK. 2024, 144 bet.
3. <https://muhaz.org/reja-nutqning-togriligi-nutqning-aniqligi-nutqning-mantiqiylig.html>.



4. Mahmudov N., Odilov Y., Ziyodullayeva G., Ona tili O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari uchun darslik 1-qism. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2018. 113 bet.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2006-2008.